

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov,
PhD, O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI

For citation: Sayfiddin M. Anarkulov. ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS OF SOCIO-ECONOMIC ADAPTATION PROCESSES IN THE URBAN ENVIRONMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807244>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy shahar sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv jarayonlari antropologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonning yirik shaharlarida tarixiy-etnografik hududlar vakillarining muayyan xo'jalik tarmoqlarida ixtisoslashuvi va ushbu jarayonning etnomadaniy asoslari yoritilgan. Shuningdek, migratsiya sharoitida shakllanadigan etnik anklavlar, mikromakonlar hamda ularning ijtimoiy moslashuvdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada moddiy va ma'naviy omillarning o'zaro ta'siri, shahar jamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida identiklikning shakllanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: shahar antropologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv, etnologik yondashuv, ichki migratsiya, etnik anklav, identiklik, mikromakon, xo'jalik faoliyati, etnomadaniyat, urbanizatsiya.

Анаркулов Сайфиддин Мухитдинович,
PhD, доцент Национального университета Узбекистана

АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ К ГОРОДСКОЙ СРЕДЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье процессы социально-экономической адаптации населения в условиях современного города анализируются на основе антропологического подхода. В исследовании рассматривается специализация представителей историко-этнографических регионов крупных городов Узбекистана в определённых сферах хозяйственной деятельности, а также этнокультурные основания данного процесса. Кроме того, научно анализируются этнические анклавы и микропространства, формирующиеся в условиях миграции, и их роль в социальной адаптации. Особое внимание уделяется взаимодействию материальных и духовных факторов, а также формированию идентичности в процессе интеграции в городское общество.

Ключевые слова: городская антропология, социально-экономическая адаптация, этнологический подход, внутренняя миграция, этнический анклav, идентичность, микропространство, хозяйственная деятельность, этнокультура, урбанизация.

Sayfiddin M. Anarkulov,

PhD, Associate Professor, National University of Uzbekistan

ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS OF SOCIO-ECONOMIC ADAPTATION PROCESSES IN THE URBAN ENVIRONMENT

ABSTRACT

This article analyzes the processes of socio-economic adaptation of the population in the context of the modern city based on an anthropological approach. The study examines the occupational specialization of representatives of historical and ethnographic regions in major cities of Uzbekistan within specific economic sectors, as well as the ethno-cultural foundations of this process. In addition, ethnic enclaves and micro-spaces formed under conditions of migration and their role in social adaptation are scientifically analyzed. Particular attention is paid to the interaction between material and spiritual factors, as well as the formation of identity in the process of integration into urban society.

Index Terms: urban anthropology, socio-economic adaptation, ethnological approach, internal migration, ethnic enclave, identity, micro-space, economic activity, ethno-culture, urbanization.

1. Dolzarbli:

Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida shahar muhitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning yirik shaharlarida ichki migratsiya oqimlarining kuchayishi natijasida turli tarixiy-etnografik hududlar vakillarining yangi iqtisodiy sharoitga moslashuvi, ularning muayyan xo'jalik sohalarida ixtisoslashuvi hamda etnomadaniy identiklikning saqlanishi va o'zgarish jarayonlari yanada murakkablashib, mazkur jarayonlarni antropologik yondashuv asosida chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda. Chunki an'anaviy sotsiologik yoki iqtisodiy tahlillar shahar ichidagi mikromuhitlar, etnik anklavlar va norasmiy ijtimoiy tarmoqlarning real faoliyat mexanizmlarini to'liq yoritib bera olmaydi. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish esa nafaqat shahar jamiyatining ichki ijtimoiy tuzilmasini aniqlash, balki migratsiya oqimlari, integratsiya jarayonlari, identiklik o'zgarishini boshqarish hamda oldindan taxmin qilish uchun ham muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

So'nggi yillarda shaharlarda ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonlarini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlar doirasi kengayib, bu yo'nalishda klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlar uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Xususan, shahar sotsiologiyasi asoschilaridan biri Robert Park va Ernest Burgessning "Chicago maktabi" doirasidagi ishlari 1920–1930-yillarda shaharni ijtimoiy laboratoriya sifatida talqin qilish an'anasini shakllantirgan bo'lsa, Manuel Castells, Saskia Sassen, Devid Massey kabi olimlar XX asr so'nggida shahar va jamiyatni tarmoqlar tizimi sifatida tahlil qilishga yangi nazariy asos yaratdi. XXI asrning birinchi choragiga kelib urban antropologiya va migratsiya tadqiqotlarida etnografik kuzatuv, chuqur intervyu, case study, ijtimoiy tarmoqlar tahlili hamda GIS asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, shaharlarning bu boradagi lokal xususiyatlari, xususan O'zbekiston sharoitida mikromakonlar va etnik ixtisoslashuvning ichki mexanizmlarini antropologik jihatdan kompleks o'rganish yetarli darajada rivojlangan deb bo'lmaydi.

3. Tadqiqot natijalari:

Shahar antropologiyasini o'rganishda uning etnik va ijtimoiy tarkibi, shahar aholisiga xos bo'lgan mult imadaniy muhit, turmush tarzi hamda ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy shaharlar qiyofasini tadqiq etishda muhim masalalardan biri sifatida aholining shahar muhitiga ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi jarayoni namoyon bo'ladi. Chunki mazkur jarayon faqat iqtisodiy qonuniyatlar yoki ijtimoiy me'yorlar doirasida kechib qolmay, balki

etnomadaniy hamda ayrim hollarda siyosiy omillar bilan ham chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy shaharlarni o'rganishga bag'ishlangan etnologik tadqiqotlarda etnik guruhlarining urbanistik muhitga moslashuvida milliy urf-odatlar, an'anaviy xo'jalik faoliyati, madaniy qadriyatlar va diniy mansublik kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Mazkur omillar nafaqat individlarning yangi ijtimoiy makonga integratsiyalashuviga, balki ularning etnik identikligi va madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishiga ham xizmat qiladi.

Ushbu maqolada kishilarning zamonaviy shahar muhitiga moslashuvida moddiy omillar hamda ma'naviy-ruhiy holatning ustuvorlik darajasini qiyosiy-etnologik tahlil qilishga harakat qilindi. Ma'lumki, kishilar nafaqat qishloqdan shaharga, balki bir shahardan boshqasiga ko'chib o'tganda ham o'zlari uchun notanish bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy makonga duch keladilar. Odatda qishloqdan shaharga ko'chib kelgan shaxs shahar jamiyatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarning qishloq muhitidagi an'anaviy aloqalardan farqli ravishda aniq maqsadga yo'naltirilgan va funksional xarakter kasb etishini kuzatadi [1]. Moslashuvning dastlabki bosqichlarida bunday noodatiy ijtimoiy munosabatlarga duch kelgan muhojir o'zida begonalik hissini anglaydi. Natijada turli ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlar shaxsda marginallik [2] holatini vujudga keltiradi [3].

Bunday vaziyatda individ o'z etnik va madaniy o'zligini saqlab qolishga intilib, yangi muhit bilan muayyan muvozanatni shakllantirishga harakat qiladi. Shu ma'noda, u o'zining "olamini" yaratish orqali yangi jamiyatga moslashish strategiyasini ishlab chiqadi. Marginallik holati esa begona ijtimoiy makonga tushib qolgan kishilarning etnik, diniy yoki ijtimoiy birlik asosida yaqinlashuvini taqozo etadi. Darhaqiqat, har qanday inson uchun notanish muhitga tushgandagi dastlabki ruhiy holat va his-hayajon tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq marginallik hodisasi ko'proq Nyu-York, London va Parij kabi ko'p millatli global shaharlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bunday megapolislarda turli etnik va madaniy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar murakkab ijtimoiy jarayonlarni yuzaga keltiradi hamda moslashuv strategiyalarining xilma-xilligini vujudga keltiradi.

Ma'lumki, aholi migratsiyasi ko'pincha ichki migratsiya shaklida namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda individ duch keladigan begonalik hissi ko'proq madaniy yoki lingvistik tafovutlar bilan emas, balki turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy to'siqlar bilan bog'liq bo'ladi. Davlatlar migratsiya oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish maqsadida aholi harakatini tartibga soluvchi turli ma'muriy mexanizmlarni joriy etadilar. Jumladan, shaharda ta'lim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish yoki turar joy xarid qilish imkoniyatlari ko'pincha shaxsning rasmiy ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi [4]. Natijada, shaharga ko'chib kelgan shaxs oldida etnik yoki madaniy moslashuvdan ko'ra, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashish va turmush faoliyatini yo'lga qo'yish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kishilarning yangi jamiyatga moslashuvida muhim omillardan yana biri diniy mansublik bilan bog'liqdir. Diniy mansublik asosida shakllangan madaniy muhit ko'lami etnik yoki iqtisodiy omillar ta'sirida vujudga kelgan anklavlarga nisbatan kengroq bo'lib, bir vaqtning o'zida bir nechta etnik guruhlarini qamrab olishi bilan tavsiflanadi. Masalan, G'arbiy Yevropa shaharlaridagi musulmon muhojirlar titul etnos bilan yetarlicha yaqin ijtimoiy munosabatlar shakllantira olmaganliklari sababli yangi jamiyatga to'liq integratsiyalasha olmaydilar [5]. Natijada ular qarindoshlik aloqalari, diniy qadriyatlar va konfessional birdamlik asosida o'ziga xos ijtimoiy-madaniy makon yaratishga intiladilar.

Bunday jarayon oqibatida Yevropa shaharlarida Yaqin Sharq va Janubiy-Sharqiy Osiyodan kelgan muhojirlarning etnomadaniy makonlari shakllanadi. Mazkur madaniy maydon muhojirlarga o'z an'anaviy urf-odatlarini, turmush tarzi va madaniy amaliyotlarini saqlab qolish imkonini beradi. Masalan, Koreyada faoliyat yuritayotgan musulmon muhojirlar go'sht mahsulotlarini pokistonlik sotuvchilardan xarid qilishga intilsalar, Parij shahrida istiqomat qiluvchi afroosiyolik jamoalar orasida turli marosimlarda o'zaro moliyaviy yordam ko'rsatish va xayriya mablag'larini maxsus daftarlarda qayd etib borish amaliyoti uchraydi. Mazkur holat o'zbek xalqidagi to'yona an'analarini

eslatadi. Bunday amaliyotlar nafaqat moddiy, balki muhojirlarning yangi ijtimoiy muhitda ma'naviy-ruhiy tayanch topishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kishilarning shahar muhitiga moslashuvida moddiy va ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi. Biroq ta'kidlash lozimki, shakllangan bunday madaniy makonlar yirik megapolislardagi polietnik muhitda nisbatan tor doirada faoliyat yuritadi. Chunki ular muhojirlarning yangi ijtimoiy muhitga to'liq integratsiyalashuvini ta'minlay olmaydi. Aksincha, birinchi avlod uchun muhim ahamiyat kasb etgan etnomadaniy muhitlar keyingi avlodlarda muqarrar ravishda transformatsiyaga uchraydi. Zero, shaharlarga ko'chib kelgan muhojirlarning ikkinchi va keyingi avlodlarida aralash identiklikning shakllanishi kuzatiladi [6].

G'arb tarixshunosligi va migratsiya tadqiqotlarida kishilarning jamiyatga moslashuvida iqtisodiy anklavlarning tutgan o'рни alohida ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mehnat bozorining kam daromadli tarmoqlarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj muhojirlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi uchun muhim imkoniyat yaratadi [7]. Migratsiya jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining hududiy ko'chishi aksariyat hollarda iqtisodiy omillar bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, yaxshi turmush sharoiti va daromad izlab boshqa mamlakatlarga ko'chib kelgan muhojirlar dastlab mehnat faoliyatining turi va mavqeidan ko'ra, iqtisodiy manfaatni ustuvor deb biladilar. Shu sababli ular sabzavot savdosi, taksi haydash yoki boshqa nisbatan kam malaka talab qiluvchi sohalarda faoliyat yuritadilar.

Biroq bunday holat ko'pincha muhojirlarning yangi jamiyatga moslashuvining dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ular yoki ularning keyingi avlodlari iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini yaxshilashga intilib, nisbatan yuqori daromadli hamda ijtimoiy jihatdan nufuzli sohalarda faoliyat yuritishga harakat qiladilar. Masalan, meksikalik tarbiyachining farzandi ota-onasining kasbini davom ettirishni istamaganidek, osiyolik savdogarning yoki lotin amerikalik muhojirning farzandi ham ko'cha tozalash yoxud taksi haydash kabi faoliyat turlarini tanlashni xohlamaydi. Natijada bo'shab qolgan mehnat bozoridagi o'rinlarni yangi kelgan muhojirlar egallaydi. Shu tariqa migratsiya oqimlari va mehnat bozori o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik vujudga keladi.

Kishilarning shahar sharoitiga moslashuvida muhim omillardan yana biri ularning ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish ta'sirida yirik shaharlarda boy va kambag'allar kvartallari, muayyan etnik guruhlar madaniyati ustuvor bo'lgan mahallalar (Chinatown, Bleak City) hamda ishchilar shaharchalari kabi mikromakonlar shakllanadi. Turar joy xarid qilish yoki ijaraga olish jarayonida shaxslar o'z iqtisodiy imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib qaror qabul qiladilar. Iqtisodiy imkoniyati yuqori bo'lgan qatlam vakillari shaharning markaziy va infratuzilmasi rivojlangan hududlarini afzal ko'rsalar, moddiy imkoniyati cheklangan aholi nisbatan arzon va chekka hududlarga joylashishga moyil bo'ladi.

Mazkur holatni Toshkent shahri misolida ham kuzatish mumkin. Arzon turar joy izlagan ayrim kishilar shahar atrofi tumanlarida istiqomat qilib, markazga kunlik qatnov asosida mehnat faoliyatini olib boradilar. Bir qarashda, bu holat tabiiy tanlanish jarayoni sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki shahar makonining turli hududlariga xos iqtisodiy va ijtimoiy talablar mavjud bo'lib, ularga moslasha olgan shaxslargina o'z hayotini mazkur makon bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi. Aks holda, ularning o'rnini mazkur muhit sharoitlariga moslasha oladigan boshqa kishilar egallaydi [8].

Kishilarning moslashuv jarayonida ijtimoiy kelib chiqish bilan bog'liq omillarni o'rganishda Yevropa shaharlaridagi ayrim xususiyatlar e'tiborni tortadi. Xususan, muhojirlarning turli ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlarni yengib o'tish maqsadida ma'lum mikromakonlarda to'planishi kuzatiladi. Bu holat muhojirlarni shahardagi murakkab ijtimoiy muhitdan nisbatan himoya qilishga xizmat qiladi. Masalan, Shvetsiyaga Yaqin Sharqdan ko'chib kelgan muhojirlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi, ishsizlik muammosini bartaraf etishi va iqtisodiy barqarorlikka erishishida etnik anklavlar muhim rol o'ynaydi. Muhojirlarning etnik ijtimoiy tarmoqlarga qo'shilishi ularning ish topish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, "insayder-autsayder" muammosi keskinlashgan hamda mahalliy aholi muhojirlarni salbiy qabul qilgan sharoitda etnik anklavlar ijtimoiy tayanch

vazifasini bajaradi [9]. Shu jihatdan qaralganda, ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvdagi ayrim moddiy muammolar ma'naviy-ruhiy omillar vositasida bartaraf etilishi mumkin.

Biroq etnik anklavlar muhojirlar o'rtasida mehnat bozori raqobatining kuchayishi va etnik ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, Koreyadagi Janubiy-Sharqiy Osiyo muhojirlari yoki Rossiya mehnat bozoridagi O'rta osiyolik migrantlar o'rtasidagi raqobat bunga yaqqol misol bo'la oladi. Odatda, ish beruvchilar arzon ishchi kuchi sifatida muhojirlardan foydalanishga intiladilar. Yangi kelgan muhojir esa tezroq ish topish maqsadida qiyin mehnat sharoitlari yoki past ish haqiga ham rozi bo'ladi. Bu esa avvalroq kelgan va nisbatan yuqori maosh olayotgan boshqa muhojirlarning ish o'rinlarini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Demak, etnik anklavlarni muhojirlarning ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvdagi mutlaq samarali vosita sifatida baholab bo'lmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonning yirik shaharlariga aholining ko'chib kelishi asosan ichki migratsiya shaklida kechmoqda. Shu bois mamlakat shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvning o'ziga xos xususiyatlari shakllanmoqda. Xususan, tarixiy-etnografik hududlarga xos an'analar va xo'jalik faoliyatining shahar muhitidagi moslashuv jarayonlariga ta'siri muhim ilmiy masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu holat ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvning negizida moddiy manfaatlar ustunmi yoki ma'naviy-ruhiy omillar yetakchimi, degan savolni yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, O'zbekiston shaharlari aholisi sonining ortishida ichki migratsiyalar muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaharlarning ma'muriy markaz sifatidagi mavqei, oliy ta'lim muassasalarining ko'pligi, mehnat bozoridagi imkoniyatlarning kengligi hamda zamonaviy turar joylarning bunyod etilishi migratsiya oqimlarini kuchaytiruvchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, migratsiya jarayonlari nafaqat muayyan davlatlar, balki butun dunyoda aholi soni va etnik tarkibning o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [10].

O'zbekistonning yirik shaharlaridagi xizmat ko'rsatish sohasi, xususan, umumiy ovqatlanish maskanlari va bozorlar faoliyatida turli tarixiy-etnografik viloyatlarga xos bo'lgan etnik va madaniy xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'zbek xalqining milliy taomlari umumxalq xarakteriga ega bo'lishi bilan birga, muayyan hududlarga xos lokal xususiyatlarni ham o'zida mujassam etgan. Jumladan, Toshkent norini, Xorazm tuxumbaragi, Qashqadaryo tandir go'shti, G'ijduvon kaboblari, Chust oshi va boshqa taomlar muayyan tarixiy-etnografik hududlarning madaniy identifikatorlari sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Buxoro viloyatiga xos bo'lgan taomlarning keng ommalashgani va iste'molchilar tomonidan yuqori baholanishi e'tiborga loyiqdir. Toshkent shahrida buxorolik oshpazlar faoliyat yuritayotgan ovqatlanish maskanlarining doimiy ravishda gavjumligi ushbu holatning amaliy ifodasidir. "Buxoro", "G'ijduvon taomlari", "Labi Hovuz", "Chinor" kabi oshxonalarda asosan mazkur hudud vakillari faoliyat olib borishi kuzatiladi. Shaharlardagi nufuzli ovqatlanish maskanlarida aynan shu viloyat vakillarining ko'plab uchrashi Buxoro aholisida taom tayyorlash bilan bog'liq an'anaviy tajriba va kasbiy madaniyatning shakllanganligini ko'rsatadi.

Mazkur masala yuzasidan o'tkazilgan so'rov natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Respondentlarning aksariyati Buxoro taomlarini afzal ko'rishlarini bildirgan bo'lib, bunga taomlarning o'ziga xos ta'mi, tanlov imkoniyatining kengligi, mazkur oshxonalarining ko'pligi hamda ularning jamoatchilik orasidagi ijobiy obro'si sabab sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, axborotchilar orasida oshpazlik kasbiga maxsus ega bo'lmagan, biroq amaliy tajriba va qiziqish natijasida yordamchi xodimdan bosh oshpaz darajasiga ko'tarilgan shaxslar mavjudligi ham qayd etildi. Bu holat Buxoro vohasida taom tayyorlash jarayonining nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki etnomadaniy an'ana sifatida qaror topganligini ko'rsatadi. Shu sababli mazkur hudud vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvda umumiy ovqatlanish sohasi muhim o'rin tutadi.

Shahar bozorlaridagi savdo faoliyatini o'rganish ham tarixiy-etnografik hududlarga xos ixtisoslashuv mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, non savdosida Farg'ona vodiysi, quruq meva savdosida Samarqand, guruch savdosida Xorazm hamda go'sht savdosida Qashqadaryo viloyati vakillarining nisbatan faol ekanligi kuzatiladi. Bunday ixtisoslashuvlar tarixiy xo'jalik an'analari, tabiiy-geografik sharoit va madaniy tajriba bilan uzviy bog'liqdir.

Toshkent shahri misolida qaralganda, Chorsu, Qo'yliq va Farhod bozorlari guruch savdosining yirik markazlari hisoblanadi. Ushbu bozorlarda yuzlab kishilar bevosita guruch savdosi bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, shahar bo'ylab "Xorazm guruchi" nomi ostida faoliyat yuritayotgan ko'plab savdo nuqtalari mavjud bo'lib, ularda asosan xorazmlik tadbirkorlar faoliyat olib boradilar. Xaridorlar orasida xorazmlik sotuvchilarning guruch navlari va sifati to'g'risida batafsil ma'lumot bera olishi hamda mahsulotni "birinchi qo'l"dan taklif qilishi yuqori ishonch omili sifatida baholanadi.

Dala tadqiqotlari va axborotchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, guruch savdosi oddiy chakana savdo emas, balki murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Ushbu tizim mahsulotni yetishtirish, yig'ish, saqlash, tashish va sotish bosqichlarini qamrab oluvchi ko'p pog'onali iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iboratdir. Bu jarayonda mahsulotni to'plovchilar (ta'minotchilar), tashuvchilar va sotuvchilar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Mahsulotni yig'ish asosan mavsumiy xarakterga ega bo'lib, ko'proq kuz oylarida amalga oshiriladi.

Axborotchilardan birining: "Burunch (guruch) bilan savdo qilish uchun alohida o'qish kerakmi? Xorazmlik bo'lish kerak", degan fikri ushbu faoliyatning hududiy identiklik bilan bog'liq ekanligini yaqqol ifodalaydi. Ta'minotchilar faoliyatini o'rganish natijasida guruch savdosida turli kasb egalari ham qo'shimcha daromad manbai sifatida ishtirok etishi aniqlandi. Shuningdek, boshqa hududlarda ham sholichilik rivojlangan bo'lsa-da, Xorazm vohasida tomorqa xo'jaliklarida ham sholi yetishtirishning keng tarqalganligi mazkur hudud aholisining guruch savdosidagi yetakchi mavqei belgilab bergan.

Nafaqat Xorazm vohasi, balki mamlakatning boshqa hududlarida ham ma'lum xo'jalik tarmoqlarining ustuvorligi kuzatiladi. Jumladan, Oltiariq bodringi, Parkent uzumi va Baxmal olmasi o'ziga xos hududiy mahsulot sifatida e'tirof etiladi. Biroq mazkur mahsulotlar, keng e'tirof etilganiga qaramay, ushbu hudud vakillarining shaharlardagi ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi uchun barqaror iqtisodiy tayanch vazifasini to'liq bajara olgani kuzatilmaydi.

Biroq ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvda tayanch omil sifatida namoyon bo'ladigan savdo tarmoqlaridan biri go'sht savdosidir. Go'sht kundalik iste'mol qilinadigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bo'lib, uning savdosi mamlakatning deyarli barcha hududlarida faol amalga oshiriladi. Respublikaning istalgan bozori yoki savdo majmualarida alohida go'sht rastalarini uchratish mumkin. Mazkur sohada, ayniqsa, Janubiy O'zbekiston vohalari vakillarining faol ishtiroki ko'zga tashlanadi. Xususan, Toshkent shahridagi go'sht savdosida tarixiy-etnografik hududlardan biri bo'lgan Qashqadaryo viloyati vakillari yetakchi mavqeni egallaydi.

Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik sharoiti qadimdan aholi xo'jaligida chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratgan. Ilmiy adabiyotlarda Janubiy O'zbekiston o'zbeklarining an'anaviy xo'jalik tizimida chorvachilik muhim o'rin tutgani qayd etilgan [11]. Bugungi kunda ham voha aholisining xo'jalik hayotida chorvachilikning ahamiyati saqlanib qolgan. Viloyatning mamlakatning yirik go'sht yetkazib beruvchi hududlaridan biri sifatida e'tirof etilishi ham ayni shu tarixiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi.

Hozirgi vaqtda Toshkent shahridagi go'sht savdosi markazlarida Qashqadaryo viloyati vakillarini ko'plab uchratish mumkin. Shuningdek, go'sht mahsulotlaridan tayyorlanadigan an'anaviy "tandir go'shti", "yaxna" va "cho'poncha" kabi taomlarning poytaxtdagi mashhur ovqatlanish maskanlari taomnomasidan mustahkam o'rin egallashi ham mazkur hududning gastronomik madaniyati va iqtisodiy ixtisoslashuvining shaharlardagi aksidir. Shu bois Toshkent shahri mehnat bozorining mazkur segmenti asosan ushbu mintaqa vakillari tomonidan rivojlantirilayotganini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning turli tarixiy-etnografik viloyatlarida tarixan shakllangan xo'jalik tarmoqlari vaqt o'tishi bilan mazkur hudud aholisining etnomadaniy xususiyatiga aylanib borgan. Natijada shahar aholisi orasida go'sht savdosi Qashqadaryo, guruch savdosi esa Xorazm vakillari bilan bog'lanadigan tasavvurlar shakllangan. Bunday stereotiplarning vujudga kelishi bir tomondan tarixiy-iqtisodiy tajriba mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu hudud vakillarining o'zlikni anglashida mazkur faoliyat turlarining muhim identifikatsion omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

4. Xulosalar:

O'zbekiston shaharlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi va o'ziga xos mikromuhitlarning shakllanishi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlardan ma'lum darajada farq qiladi. Chunki mamlakat sharoitida moslashuv jarayonlari ko'pincha tarixiy-etnografik hududlarga xos bo'lgan an'anaviy xo'jalik faoliyati va madaniy tajribalar asosida kechadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvda moddiy va ma'naviy omillarning o'zaro nisbatini bir necha jihatlar orqali izohlash mumkin. Birinchidan, insonning ma'naviy-ruhiy o'zligini saqlab qolishi ko'p hollarda uning moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, begona jamiyatda yashayotgan muhojir umumiy madaniy muhitga moslashishga majbur bo'lsa-da, iqtisodiy imkoniyatlari keng bo'lgan sharoitda o'z etnomadaniy qadriyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jumladan, u o'z madaniyatiga xos musiqa, taom yoki marosimlarni saqlab qolish orqali etnik identikligini ifoda etadi. Bu holat moddiy farovonlikning ma'naviy-ruhiy o'zlikni namoyon qilishdagi muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy omilning o'zi kishining ijtimoiy-madaniy moslashuvini to'liq ta'minlay olmaydi. Masalan, yirik shaharlarda murakkab sharoitda yashayotgan muhojirlarning ahvoli ko'pincha iqtisodiy jihatdan barqarorroq bo'lgan boshqa muhojirlarda hamdardlik hissini uyg'otadi. Ayniqsa, diniy yoki etnik birlik hissi bunday yordam munosabatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtoj kishiga yordam ko'rsatishning zamirida ko'pincha iqtisodiy imkoniyatdan ko'ra, milliy yoki diniy mushtaraklik haqidagi tasavvurlar ustun turadi. Bu esa ijtimoiy-madaniy o'zlikni anglashning ma'naviy-ruhiy omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston shaharlarida turli tarixiy-etnografik hudud vakillarining muayyan iqtisodiy tarmoqlarda yetakchilik qilishi ham ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, bu holat mazkur hududlarning tarixiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, ushbu faoliyat turlarining hudud vakillari ongida o'zlikni anglash va etnomadaniy identiklikning muhim unsurlaridan biriga aylanganligi bilan tavsiflanadi. Binobarin, tarixiy-etnografik hududlarga xos an'anaviy xo'jalik faoliyati nafaqat iqtisodiy moslashuvning, balki ma'naviy-madaniy integratsiyaning ham muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Гидденс Э. Социология. – Тошкент: Шарк, 2002. 634-бет.
2. Marginallik (lotincha marginalis – “chegarada joylashgan”) 1920-yillardan boshlab AQShga ko'chib kelgan va u yerning ijtimoiy muhitiga moslasha olmagan aholi guruhiga nisbatan qo'llanilgan sotsiologik atamadir.
3. Рязанцев С.В. Этническое предпринимательство как форма адаптации мигрантов // Общественные науки и современность. 2000. №5. – С. 74.
4. Ли Куан Ю. Мой взгляд на будущее мира. – Москва: Alpina Non-Fiction, 2017. – С.37.
5. Хрусталёв И.М. Этническое предпринимательство мусульманских диаспор в странах Западной Европы // Вестник МГИМО Университета. – Москва, 2011. – С.189.
6. Ojeda W. Urban Ethnicity in Santiago de Chile Mapuche Migration and Urban Space. – Berlin, 2009. – P. 42.
7. Caroline B. Brettel. Urban History, Urban Anthropology, and the Study of Migrants in Cities. Article in City & Society. June 2008. – P. 132.
8. Парк Р.Э. Избранные очерки. – Москва: ИНОАН РАН, 2011. – С. 67.
9. Andersson M., Larsson J. and Öner Ö. Ethnic Enclaves and Immigrant Self-employment: A Neighborhood Analysis of Enclave Size and Quality // IFN Working Paper No. 1195, 2017. – P. 3.
10. Муртазаева Р.Х. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX – начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. – Германия, 2015. – С.14.

11. Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX–нач. XX вв.) // СЭ. №3. 1969. –с. 44-51.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000